2026-yil 20-mayda "Toshkent Invest kompaniyasi" AJning veb-saytiga joylashtirilgan e'lon bo'yicha Toshkent shahrida BRT loyihasini amalga oshirish doirasida eng yaxshi takliflarni tanlab olish orqali xalqaro konsultant (muhandis-konsultant) xizmati xaridni amalga oshirish yuzasidan Tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan shaxslar (Ishtirokchi) takliflarini komissiya tomonidan ko'rib chiqish va eng yaxshi taklifni tanlab olish natijasi bo'yicha

MA'LUMOT

Toshkent shahar hokimligi eng yaxshi takliflarni tanlab olish orqali xaridlarni amalga oshirish bo'yicha komissiyasining 2026-yil 8-iyundagi yig'ilish bayoniga muvofiq, 2026-yil 20-mayda "**Toshkent shahrida BRT loyihasini amalga oshirish doirasida xalqaro konsultant (muhandis-konsultant) xizmati xaridni amalga oshirish**" bo'yicha www.toshkentinvest.uz veb-saytida joylashtirilgan e'lon bo'yicha tanlov amalga oshmagan deb topildi.

Sababi 2 ta ishtirokchi tomonidan Tanlov yuzasidan takliflar joylangan konvertlar taqdim qilingan:

1) Kurskiy Pavel Vladimirovich (jismoniy shaxs)

2) "Worley Parsons Uzbekistan Enginereeng" MChJ QK;

Toshkent shahar hokimining 2026-yil 23-yanvardagi "Eng yaxshi takliflarni tanlab olish orqali xaridlarni amalga oshirish tartibini tasdiqlash haqida"gi 38-14-0-Q/26-sonli qarorining 2-ilovasiga asosan ishtirokchi tomonidan mazkur tanlovda ishtirok etish uchun ishtirokchilarning taklifini ta'minlash miqdorini buyurtmachi hisob raqamiga to'lanishi belgilangan.

Jismoniy shaxs Kurskiy Pavel Vladimirovich tomonidan texnik topshiriqda belgilangan miqdorda taklifini ta'minlash miqdori buyurtmachi hisob raqamiga to'lanmaganligi aniqlandi. Bu esa ishtirokchining keyingi bosqichga konvertlarni ochish bosqichiga o'tkazishga ruxsat berilmaydi.

Bundan tashqari yuqorida qayd etilgan qarorning 1-ilovasining 11-bandiga muvofiq Tanlovda xarid predmeti bo'yicha Tanlov hujjatlari talablariga muvofiq kamida ikkita ishtirokchi taklif bilan qatnashgan bo'lsa, tanlov amalga oshgan deb hisoblanadi, yoki aksincha, ikkitadan kam ishtirokchi takliflarini taqdim etgan taqdirda tanlov amalga oshmagan deb hisoblanishi belgilab qo'yilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tanlovda 1 (bitta) ta ishtirokchi qolganligini inobatga olib mazkur tanlov amalga oshmagan deb topildi.

Xarid komissiyasi tomonidan mazkur tanlovni qayta e'longa berish topshirildi.

Qo'shimcha savollar va ma'lumotlar yuzasidan mas'ul vakil bilan bog'lanishingiz mumkin.

Ma'lumot uchun:

Buyurtmachi mas'ul vakili: B.A. Begmatov.

Telefon – (71) 210-02-61, (90) 977-72-53, (97) 778-08-71.

"Toshkent Invest kompaniyasi" AJ Yo'l infrastrukturasi bo'yicha Loyiha ofisi rahbari **U. Atadjanov**

Kotib **B. Begmatov**